

Ushbu «YOsh bog'bon» to'garak dasturining asosiy maqsadi, maktablarda ta'lim olayotgan yoshlarni sinf va maktabdan tashqari bo'sh vaqtlarida mazkur to'garaklarni tashkil qilib, O'zbekistonda o'sadigan mevali daraxtlarni, xo'jalik jihatidan qimmatli bo'lgan o'simliklar o'stirish, agromaydonchalarda tajribalar o'tkazish, shu bilan birga o'z mehnatining samarasi, iqtisodiy foydasi va boshqalarni ham bilib olishdir.

Tuzuvchilar:

ped.fanlari nomzodi M. Jabborov
biol.fanlari nomzodi S.Pozilova

Taqrizchilar:

Tosh.D.A.U. Mevachilik va uzumchilik kafedrası mudiri, doçent, B.G'ulomov.

Respublika taolım markazi
Maonaviy-maorifiy ishlar
bo'limi bosh metodisti F.Holmirzaeva

KIRISH.

O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunini amalga oshirish maqsadida bolalar va o'smirlarning yakka tartıbdagi ehtiyojlarini qondirish, maktabdan tashqari ta'lim ishlarini tashkil qilish juda katta ahamiyatga ega.

Maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasaları barcha ishlarini davlatimiz tomonidan chiqarilgan qarorlarga asoslanib olib boradilar va o'quvchılarning mustaqılligi, tashabbus-korligini oshirish maqsadida ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishga qaratadilar.

O'quvchılar tayyorgarligi, umumiy bilim darajaları, ularning bilimga qiziqishlarini hisobga olib maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ekologiya va tabiatshunoslar to'garaklari tashkil qilinadi.

Mazkur to'garaklarning vazifasiga o'quvchılarni mehnatsevar, tabiatni o'rganishga qiziquvchi,mustaqil fikrlovchi,qobiliyatli, tashabbuskor va mehnatga layoqatli insonlarni tarbiyalash kiradi.

To'garaklarning faoliyatiga: maktab oldi er maydonlarida xo'jalik jihatidan qimmatli bo'lgan o'simliklar o'stirish va hayvonlarni ko'paytirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida tajribalar o'tkazish, umumiy foydali mehnat qilish, tabiatni muhofaza qilish va uni boyitish ishlarini amalga oshirish. Yosh tabiatshunoslarning ishlari tadqiqot tamoyiliga asoslanadi. Sinf dan tashqari ishlar shunday uyushtirilgandagina ilmiy dunyoqarash, mehnatsevarlik ,estetik did va tarbiyaning boshqa omillari ko'zga ko'rinadi.

Ushbu bog'dorchilik dasturida uzumchilik va dekorativ bog'dorchilik bo'limlari ham ko'zda tutilgan.

Ta'lim muassasalarida to'garak mashg'ulotlarini bolalarni tayyorgarlik darajasiga, bilimlari va ko'nikmalariga qarab tashkil qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Mazkur dastur loyiha hisoblanib, amalda mufassal tekshiruvdan sinovdan o'tkazilib, kamchiliklarini to'ldirib borishni talab qiladi.

Bu loyihani biz respublikamiz ta'lim muassasalarida bog'dorchilikdan tashkil qilingan to'garaklarda sinovdan o'tkazib, o'qituvchılarning fikr va mulohazalarini hisobga olib, qayta ishlab, to'ldirib borishni ko'zda tutamiz.

Dastur mashg'ulotlari bir yilga mo'ljallangan bo'lib, 144 soatni tashkil etadi, unda ham nazariy bilimlar berish va amaliy mashg'ulotlar o'tish nazarda tutilgan.

YOsh bog'bon to'garak mashg'ulotlari dasturi.

№.	Mavzularning nomi	Jami soatlar	SHu jumladan	
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot
I.	Kirish	1	1	-
1	Mevachilik, uning turlari	7	2	5
2	Meva va rezavor meva ekinlarining tavsifi. Nav, sifat xususiyatlari.	4	2	2
3	Meva ko'chatlari. Meva va rezavor meva	8	2	6

	ko'chatlarini vegetativ ko'paytirish usullari.			
4	Meva navlarining urug'lari va payvandtaglarni urug'dan ko'paytirish.	9	3	6
5	Meva ko'chatlarini barpo etish.	2	2	-
6	Ko'chatzorlarning birinchi dalasini barpo etish va uni parvarish qilish.	6	2	4
7	Ko'chatzorlarning ikkinchi va uchinchi dalalarida ko'chat etishtirish.	8	2	6
8	Mevali bog' barpo etishni rejalashtirish.	10	2	8
9	YOsh meva bog'larini parvarish qilish.	10	3	7
10	Hosilga kirgan bog'larni parvarish qilish	18	4	14
11	Hosildorlik oshirish yo'llari.	6	2	4
12	Subtropik o'simliklar etishtirish	4	2	2
13	Rezavor ekinlar va ularning ahamiyati	2	2	-
14	Qulupnay, malina, korakat.	9	2	7
15	YAshil daraxtlarning ahamiyati, ularning turlari. Daraxt va butalar ekish.	6	2	4
16	Tokni tuzilishi, o'sish xarakteri va meva berishi	2	2	-
17	Tok ko'chatlari etishtirish.	7	2	5
18	Toklarni ko'mib qo'yish.	10	2	8
19	YOsh hosilga kirgan toklarni parvarish qilish.	8	2	6
20	Bog' va tokzorlarning zararkunandalari va kasalliklari	5	2	3
21	YAkun yasash.	2	2	-
Jami		144	47	97

YOsh bog'bon to'g'arak mashg'ulotlarining yillik mavzuviy o'quv rejası

144 soat

№	Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Soat
	Sentyabr		
	Kirish		1
1.	Mevachilik, uning turlari		2
		Sayohatlar uyushtirish	2
		Bog'dorchilik jamoa xo'jaligiga sayohat.	3
2.	Meva va rezavor meva ekinlarining tavsifi hamda nav, sifat xususiyatlari. Asosiy meva va rezavor ekinlar, ularni O'zbekiston hududida joylashtirish. Bog'dorchilikda nav tushunchasi		2
		Jamoa xo'jaliklari yoki tajriba stantsiyasining bog'larida, meva va rezavor meva ekinlarining har xil navlari bilan tanishtirish.	2
3.	Meva ko'chatlari. Ko'chatlarni vegetativ ko'paytirish usullari.		2
	Oktyabr		
		Payvandlashda ishlatiladigan asboblardan tanishtirish.	2
		Bog' zamazkasi tayyorlash.	2
		Ko'chatni har xil usulda payvandlash mashqlari	2
4.	Meva navlarining urug'la-ri va payvandtaglarni urug'dan ko'paytirish. Meva urug'larining biologik xususiyatlari, urug' tayyorlash. Urug'ni mevdan ajratib olish yo'llari: quritish, xillash va saqlash.		3
		Meva navlari urug'ini yig'ish, uni tayyorlash,	2

		xillash,sifatini aniqlash va saqlash.	
		Danakli o'simliklarning urug'larini yashiklarga ekish,urug' normalarini hisoblab chiqish.	2
		Ko'chatzor uchun joy tanlash,uni tekislash va tuproqni ishlash.	2
5.	Meva ko'chatzori barpo etish. Ko'chatzor barpo etish, ularning bog'dor-chilikni rivojlantirishdagi roli. Tumanda, jamoa xo'jaliklarida meva ko'chatzorlar barpo qilishning zarurligi.		2
	Noyabr		
6.	Ko'chatzorlarning birinchi dalasini barpo etish va ko'chatlarni parvarish qilish. Ko'chatzorni birinchi dalasini barpo etishda maydonchani va ko'chatlarni ekishga tayyorlash.		2
		Kurtak payvand qilish uchun ishlatiladigan asboblardan tanishish.Kurtak payvand qilishni mashq qilish.	2
7.	Ko'chatzorlarning ikkinchi va uchinchi dalalarida ko'chat etishtirish.Kurtak payvandlarni parvarish qilish.		2
		Payvand navdalarini bog'lab qo'yish. Ko'chatlarni parvarish qilish:butash,o'g'itlash,sug'orish,zararkunandalarga qarshi kurashish.	2
		Ko'chatlarda shox-shabba hosil qilish. Ko'chatlarni kavlab olishga tayyorlash.	2
		Ko'chatzordagi ishlar bilan tanishish maqsadida,bog'dorchilik xo'jaliklarga,tadqiqot maydonchalar va bog'dorchilik instituti ko'chatzorlariga sayohat uyushtirish.	2
8.	Meva bog'i barpo etish. Uning uchun joy tanlash. Tuproq sifatini aniqlash.Joyning tabiiy sharoitiga to'g'ri keladigan meva navlarini tanlash.		2
	Dekabr		
		Ko'chat o'tkazishdan oldin Tuproqni ekishga tayyorlash.Maydonni bo'lib chiqish,chuqurchalar qazish.	2
		Ko'chatlarni o'tkazishga tayyorlash,ular miqdorini aniqlash.	2
		Ko'chatlar o'tkazish.YAngi bog'ni parvarish qilish.	2
		Ko'chatlarga solingan organik, mineral o'g'itlarning o'sish va rivojlanishga ta'sirini kuzatish.	2
9.	YOsh meva bog'larini parvarish qilish.YOsh meva daraxtlarining o'sish xususiyatlariga ko'ra,tashqi muhit sharoitiga bo'lgan talablari.Meva o'simlik-larini o'sishini,ularni o'z vaqtida etilishini tezlashtiruvchi tadbirlar.		3
		YOsh bog'da tuproqni ishlash va o'g'itlash.	2
		Daraxt atrofini, qatorlar orasini ishlash.Sug'orish.	3
	Yanvar		

		Daraxt shox-shabbasiga shakl berish.(butash). Daraxtlar tanasini oqlash,kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash choralari	2
10.	Hosilga kirgan bog'larni parvarish qilish .YUqori hosil olish uchun hosilga kirgan bog'larni tuprog'ini ishlash,o'g'itlar solish normasi,vaqti va o'g'itlash usullari.		2
	O'simliklarni oziqlantirishda mikroelementlardan foydalanish.		2
		Meva daraxtlariga shakl berish va yoshartirish.	
		Qurib qolgan daraxtlar o'miga yangi ko'chatlarni ekish.	2
		Bog'dagi zararlangan shoxlarni olib tashlash.	2
		Ko'chatlarni mineral o'g'itlar bilan qo'shimcha oziqlantirish.	2
		Organik o'g'itlar bilan qo'shimcha oziqlantirish.	2
	Fevral		
		Daraxt tanasini parvarish qilish.	2
		Meva daraxtlari zararkunandalariga qarshi kurash.	2
11.	Hosildorlikni oshirish yo'llari.Asalarilarning roli.		2
		Mevali shoxlarga tirgovich qo'yish. Daraxtlardagi mevalarni hosilini oz-ko'pligini aniqlash va mevalarini yig'ib olish muddatlari.	2
		Mevalarni terish texnikasi va ularni saqlash.Bog'larda hosilni yig'ib olishda jamoa xo'jaliklariga yordam berish.	2
12.	Subtropik o'simliklar etishtirish. O'zbekistonda ekiladigan asosiy subtropik o'simliklar(anjir,anor, xurmo va boshq.)		2
13.	Rezavor ekinlar va ularning ahamiyati.Rezavor ekinlarning O'zbekistondagi hozirgi ahvoli va kelajakda rivojlanishi.		2
	Mart		
14.	Qulupnay,malina,qoraqat.Ular rivojlanishidagi morfologik va biologik xususiyatlari.		2
		Ekish uchun joy tanlash va tayyorlash.Ekish materialini tayyorlash.	2
		Ekilgan o'simliklarni parvarish qilish: sug'orish,tuproqni yumshatish,o'g'itlash,qo'shimcha oziqlantirish.	3
		Zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurashish.	2
15.	YAshil daraxtlarning ahamiyati.Turlari,daraxt va butalar ekish.Manzarali daraxtlar va butalarning urug'larini tayyorlash,saqlash,tuproqni ekishga tayyorlash.		2

		Manzarali daraxtlar o'tqazish uchun joy tayyorlash va ekish.	2
		To'garak qatnashchilarining yordamida parklarni bezatishda ishtirok etish.Daraxtlarni parvarish qilish.	2
	Aprel		
16.	Tokning tuzulishi,o'sish xarakteri va meva berishi. Tok o'simligining organlari va qismlari.		2
17.	Ekish materialini etishtirish.Tokni urug'dan ko'paytirish va ulardan foydalanish.Tokni vegeta-tiv ko'paytirish va undan tokchilikda foydalanish.		2
		Tok qalamchalarini tayyorlash.Ularni saqlash uchun ko'mib qo'yish, parvarishlash.	3
		Tok qalamchasini o'tqazish uchun tuproqni tayyorlash.	2
18.	Toklarni ko'mib qo'yish. Tok o'simliklarini issiqlikka,yorug'likka, tuproqqa,suvga bo'lgan talabini hisobga olgan holda joy tanlash.Uzum navlari.		2
		Tok ko'chatini ekish uchun joy tayyorlash va ularni paykallarga bo'lish.	2
		CHuqur kavlash va ekish.	2
	May		
		Tokni parvarish qilish o'g'itlash,sug'orish va yumshatish	2
		Tok zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurashish.	2
19.	YOsh hosilga kirgan toklarni parvarish qilish. So'rilarining turlari va so'ri o'rnatish.		2
		Tuproqqa ishlov berish,sug'orish,o'g'itlash. Qalamchalarni parxish qilish va tok novdalarini qirqish.	2
		Xomtok qilish,bachki novdalarini yulib tashlash ,novdalar uchini qirqish.	2
		Xomtok qilishda ishlatiladigan asboblari. Tok zararkunanda va kasalliklariga qarshi kurash.	2
20.	Bog' va tokzorlarning zararkunandalari va kasalliklari. Meva va uzumning zararkunandalari va kasalliklari haqida umumiy mahlumotlar.		2

		Meva,rezavor meva hamda toklarning kasalliklarini oldini olish choralari. Jamoa xo'jaliklari bog'lari va tokzorlariga ekskursiya uyushtirish.	3
21.	Yil davomida qilingan ishlarga yakun yasash.		2

YOsh bog'bon va sohibkor to'garak dasturi bo'yicha mavzuviy rejalashtirish.

Jami : 144 soat

Kirish.

1 soat.

YOsh bog'bonlar to'garagining maqsad va vazifalari. To'garak ishlarining mazmuni. O'zbekistonda bog'dorchilikning ahamiyati va uzumchilikni rivojlantirish sohasidagi vazifalar.

1-mavzu. Mevachilik, uning turlari va ularni parvarish qilish.

7 soat (2/5)

Bog'dorchilik-tajriba ho'jaligiga quyidagi maqsadda sayohat uyushtiriladi:

- Meva va rezavor mevali ekin turlarini etishtirish usullari va yangi navlar namunalari bilan tanishtirish.
- Bog'dorchilik bo'yicha tajriba o'tkazish ishlari bilan tanishish.
- Amaliy mashg'ulot :
- Sayohat materiallarini ishlab chiqish.
- Tajriba mavzularini zvenolarga taqsimlash va ularni o'tqazish rejasini tuzish.
- Dastlabki tajribalar qilish.
- Kuzatishlar,tajribalar kundalik daftari taosis etish formasi va yuritish tartibi.

2-mavzu. Meva va rezavor meva ekinlarining tavsifi hamda navsifat xususiyatlari.

4 soat (2/2)

Asosiy meva va rezavor meva ekinlari hamda ularni O'zbekiston hududida joylashuvi.Bog'dorchilikda nav tushunchasi. Respublikamizda o'stiriladigan asosiy navlar. Navlarning biologik ko'rsatkichlari: shox-shabballari, barglarining shakli, mevasi, hosildorligi, noqulay ob-havo, tuproq sharoitlariga chidamliligi, har xil kasalliklarga va zararkunandalarga chalinmasligi, uzoq yillar yashashi, tezroq mevaga kirish davri, har yili hosil berishi, meva va rezavor mevalarning etilish davri katta kichikligi, shakli va rangi.

- Amaliy mashg'ulot:
- Jamoa ho'jaliklari yoki tajriba uchastkalarining bog'larida:
- Muayyan tumanda o'stiriladigan meva va rezavor meva ekinlarining har xil navlari bilan tanishish.
- Meva daraxtlarining tanasi, shakli, shoxlari, barglari mevasining rangi, mazasi, taomi, sifatleri va boshqa belgilariga qarab navini aniqlash.
- Respublikamizda o'stiriladigan meva va rezavor meva ekinlarining navlarini aniqlagichi bilan tanishish.

3-mavzu. Meva ko'chatlari. Meva va rezavor meva o'simliklarini vegetativ ko'paytirish usullari.

8 soat (2/6)

Ayrim meva turlarini vegetativ ko'paytirish usullari. Payvandtak va payvando'st - payvandlangan ko'chatning tarkibiy qismidir. Payvandtak va payvando'stning o'zaro taosiri. Payvando'stga qo'yiladigan talablar.

Asosiy meva turlariga ishlatiladigan payvando'stlarning tasnifi. SHira ajralish davri – payvand qilish vaqtidir. Payvandlash usullari: kurtak payvand, qalamcha payvand, iskana payvand, pustlog'i ostiga, tanasi yoniga payvand qilish.

Payvand qilish vaqtida qo'l va asboblarning tozaligi, po'stlog'i kesilgan joyning silliqiligi, chipta yoki plyonka bilan bog'lash va soda surtish – payvandlarning yaxshi tutish garovidir.

- Amaliy mashg'ulot:
- Payvandlashda ishlatiladigan asboblari bilan tanishish.
- Bog' zamaskasi tayyorlash.
- Ulashib berilgan material va ko'chatni har xil usulda payvandlash mashqlari.

4-mavzu. Meva navlarining urug'lari va payvandtaglarni urug'dan ko'paytirish.

9 soat (3/6)

Meva navlari urug'larining biologik xususiyatlari. Urug' tayyorlash. Urug'ni mevadan ajratib olish yo'llari: quritish, xillash va saqlash. Urug'ning sifatiga qo'yiladigan talablar hamda uni aniqlash yo'llari.

Ko'chatzor uchun joy tanlash. Erni ekishga tayyorlash. Ekish muddatlari va usullari. Ekish normasi hamda urug'ning erga ko'mish chuqurligi. Ekish texnikasi. Ko'chatlarni parvarish qilish. Qo'shimcha oziqlantirish, sug'orish, tagini yumshatish hamda zararkunanda, hasharotlarga qarshi kurash.

- Amaliy mashg'ulot:

- Meva navlari urug'ini yig'ish, uni tayyorlash, xillash, sifatini aniqlash, saqlash.
- Danakli o'simliklarning urug'larini yashiklarga ekish yo'li bilan statifikasiya qilish.
- 100 m², 1 ga erga ekiladigan urug' normalarini hisoblab chiqish.
- Ko'chatzor uchun joy tanlash, uni tekislash va tuproqni ishlash. Bahorda ko'chatlarni pikirovka qilish, parvarishlash, qo'shimcha oziqlantirish, sug'orish, tagini yumshatish, zararkunandalar va kasalliklarga qarshi kurashish.

5-mavzu. Meva ko'chatzorni barpo etish.

2 soat.

Meva ko'chatzori barpo etishdan maqsad, ularning bog'dorchilikni rivojlantirishdagi rolini aniqlash. Har bir tumanda, jamoa xo'jaliklarida ko'chatzorlar barpo qilishning zarurligi. Ko'chatzorlarning tarkibiy qismlari:

- Urug'dan payvandtak o'stirish bo'limi, ko'chat o'stirish bo'limi, ko'paytirish bo'limi;
- Vegetativ ko'paytirish uchun parhish bo'limi.
- Payvandlangan ko'chatlarni o'stirish bo'limi.
- Qalamchalar bilan ko'paytirish bo'limi.

Ko'chatzor uchun er tanlash.

6-mavzu. Ko'chatzorning birinchi dalasini barpo etish va uni parvarish qilish.

6 soat (2/4)

Ko'chatzorni birinchi dalasini barpo etishda maydonchani tayyorlash. Ko'chatlarni ekishga tayyorlash. Payvandtaklarni ekish vaqti va muddatlari. Ekish texnikasi, ko'chatlarni parvarish qilish, sug'orish, qo'shimcha oziqlantirish, tagini yumshatish. Zararkunanda kasalliklarga qarshi kurashish. Kurtak payvand. Kurtak payvand qilish muddatlari. O'simliklarni kurtak payvand qilishga tayyorlash. Kurtak payvand qilishda foydalaniladigan asboblari. Kurtak payvand qilish texnikasi. Ikkita ko'chatni kurtak payvand qilish. Danakli o'simliklarni yozgi kurtak payvand qilish. Qalamchalar tayyorlash muddatlari va texnikasi. Qalamchalarni saqlash. Payvand tutganligini tekshirish.

- Amaliy mashg'ulot;
- Kurtak payvand qilish uchun ishlatiladigan asbob va materiallar bilan tanishish.
- Kurtak payvand qilishni mashq qilish.
- Urug'li ko'chat payvandtaklarga yozda, kuzda, kurtak payvand qilish, ularni parvarishlash.

7-mavzu. Ko'chatzorning ikkinchi va uchinchi dalalarida ko'chat etishtirish.

8 soat (2/6)

Kurtak payvandlarni parvarish qilish. Kurtak payvandlarni bahorda tekshirish. Payvand tutmagan payvandtaklarga qayta payvand qilish. Payvandtaglardagi bosqichlarni kesib tashlash. YOzgi novdalar, ularni parvarish qilish, shox-shabbaga shakl berish.

Bir yillik va ikki yillik daraxtlarda shox-shabba hosil qilish. YOn novdalarini olib tashlash texnikasi, muddatlari. Ko'chatzorning ikkinchi dalasidagi ko'chatlarni parvarish qilish. Ko'chatlarni kovlab olishga tayyorlash. Meva ko'chatlarini hujjatlash.

- Amaliy mashg'ulot;
- Payvand novdalarini bog'lab qo'yish.
- Ko'chatlarni parvarish qilish: butash, o'g'itlash, sug'orish, zararkunandalarga qarshi kurashish. Ko'chatlarda shox-shabba hosil qilish.
- Ko'chatlarni kavlab olishga tayyorlash.
- Ko'chatlarni qishda saqlash uchun ko'mib qo'yish.
- Ko'chatzordagi ishlar bilan tanishish maqsadida bog'dorchilik ilmiy tadqiqot instituti hamda bog'dorchilik xo'jaliklariga sayohat tashkil qilish.

8-mavzu. Meva bog'i barpo etish.

10 soat (2/8)

Meva bog'i barpo etish uchun joy tanlash. Tuproqning sifatini baholash. Joyning tabiiy sharoitiga to'g'ri keladigan meva navlarini tanlash. Navlarni joylashtirish. Boqqa meva daraxtlarni joylashtirish. Ko'chat o'tkazishdan oldin tuproqni tayyorlash. Maydonni bo'lib chiqish, chuqurchalar kavlash. Ko'chatlarning sifatiga bo'lgan talablar. Ko'chatlarni erga o'tkazishga tayyorlash. Ko'chat o'tkazish muddati va texnikasi.

- Amaliy mashg'ulot;

Bog' barpo etish rejasini tuzish, bunda daraxt navlarini joylanishini, ximoya-ixota daraxtzorlarini, yo'l tarmoqlarini, asalari boqiladigan joylarni hisobga olish. Bog' barpo etish uchun kerak bo'ladigan ko'chatlar miqdori. chuqurlar kavlash, ko'chatlar o'tkazish, ko'chat o'tkazib bo'lgandan so'ng, bog'ni parvarish qilish.

Tajriba o'tkazish uchun mavzular:

Ko'chat o'tkaziladigan chuqurlarga solingan organik mineral o'g'it aralashmalarining meva daraxtlarining o'sishi va rivojlanishiga taosiri.

9-mavzu. YOsh meva bog'larini parvarish qilish.

10 soat (3/7)

Meva o'simliklari er ustki qismlarining ildiz sistemasining rivojlanishiga bog'liq bo'lishi, yosh mevali daraxtlarning o'sish xususiyatlariga ko'ra, tashqi muhit sharoitiga bo'lgan talablari. Meva o'simliklarini o'sishini ularni o'z vaqtida etilishini tezlashtiruvchi tadbirlar.

YOsh bog'da tuproqni ishlash va o'g'itlash. YOsh bog'da daraxt qatorlari orasidagi tuproqning tarkibi. Bog' qator oralaridan foydalanish. Daraxt atrofini, qatorlar orasini, daraxtlar orasini ishlash. O'g'itlash usuli, muddati va normalari. Sug'orish muddati va vaqti, yosh meva daraxti shox-shabbasiga shakl berishda butashning ahamiyati. Butash tartiblari. Daraxtlar tanasi oqlash. Meva o'simliklarining zararkunanda va kasalliklariga qarshi kurash.

- Amaliy mashg'ulot:

YOsh meva bog'ining parvarish qilishning agrotexnika planini tuzish. YOsh bog'dagi daraxtlar atrofini, qatorlar orasini ishlash, o'g'itlar bilan qo'shimcha oziqlantirish. Daraxtlar tanasini parvarish qilish. Meva daraxtlarini parvarish qilish, oqlash va butash.

10-mavzu. Hosilga kirgan bog'larni parvarish qilish.

18 soat (4/14)

Daraxtlardan har yili yuqori hosil olishda ularni tez o'stirish hamda hosilga kirgan bog'larni parvarish qilish. Hosilga kirgan bog'larni tuprog'ini ishlash. Hosildorlikni oshirishda o'g'itlarni roli. Har xil turdagi meva daraxtlari tagiga o'g'itlar solish, o'g'itlar normasi, vaqt va o'g'itlash usullari. O'simliklarni oziqlantirishda mikroelementlardan foydalanish. Turli meva navlarini har yili butash. Sug'orish usullari, miqdori va muddati. Daraxt tanasi va shox-shabbalarini parvarish qilish, tanani tozalash, zararlangan shoxlarini olib tashlash, meva o'simliklarining zararkunanda va hasharotlarga qarshi kurash. Qurib qolgan daraxtlar o'rniga yangilarini ekib turish. Meva daraxtlariga shakl berish va yoshartirish.

- Amaliy mashg'ulot:

Organik va mineral o'g'itlar bilan qo'shimcha oziqlantirish. Meva daraxtlarining shox-shabbalari va tanasini parvarish qilib turish. (po'stlog'ini tozalash, oqlash, zararlangan joyini tuzatish). Meva daraxtlari zararkunandalariga qarshi kurash.

11-mavzu. Hosildorlikni oshirish yo'llari.

6 soat (2/4)

Hosilni oshirishda asalarilarning roli. Meva daraxtlariga tirgovich qo'yish. Daraxtlardagi mevalarni hosilni o'z ko'pligini aniqlash va mevalarni yig'ib olish muddatlari. Hosilni yig'ib terib olish. Mevalarni terish texnikasi va ularni saqlash. Hosilni yig'ib olish uchun kerakli asboblari.

- Amaliy mashg'ulot:

Daraxtlarga tirgovich qo'yish. Hosilni yig'ib olish. YAqin atrofdagi jamoa ho'jaliklariga bog' hosilini yig'ib olishda yordam berish.

12-mavzu. Subtropik o'simliklar etishtirish.

4 soat (2/2)

O'zbekistonda ekiladigan asosiy subtropik o'simliklar (anjir, anor, xurmo) Subtropik o'simliklarni tashqi sharoitga bo'lgan talablari. Iqitrus o'simliklarni tuvaklarda o'stirish va ularni parvarish qilish. Subtropik meva o'simliklarni parvarish qilish.

- Amaliy ishlar:

Tuproqni ekishga tayyorlash. Ko'chat o'tkazish, parvarish qilish, o'sishi va rivojlanishini kuzatish.

13-mavzu. Rezavor ekinlar va ularning ahamiyati.

2 soat

Rezavor ekinlarning ahamiyati. Rezavor ekinlarning O'zbekistondagi hozirgi ahvoli va kelajakda rivojlanishi. Respublikamizda ekilayotgan asosiy rezavor ekinlar va ularning tarqalishi. YOvvoyi rezavor ekinlar va ularning tarqalishi. YOvvoyi rezavor usimliklardan foydalanish va ularni selekuiya ishlaridagi ahamiyati. Rezavor o'simliklarning yangi navlarini etishtirish.

14-mavzu. Qulupnay, malina, qoraqat.

9 soat (2/7)

Kulupnay, malina, qoraqatlarning rivojlanishida morfologik va biologik xususiyatlari. Ko'paytirish yo'llari. O'zbekistonda o'stiriladigan asosiy navlar: o'stirish xususiyatlari. Ko'chat ekish uchun joy tanlash. Tuproqni ishlash, ug'it saqlash, o'simliklarni joylashtirish.

- Amaliy mashg'ulot:

Ekish uchun joy tanlash va tayyorlash. Ekish materialini tayyorlash. Ekilgan o'simliklarni parvarish qilish: sug'orish, tuproqni yumshatish, o'g'itlash, qo'shimcha oziqlantirish, zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurashish.

15-mavzu. YAshil daraxtlarni ahamiyati, turlari va ularni ekish.

6 soat (2/4)

YAshil daraxtlarning turlari, hiyobonlar, madaniyat bog'lari. Manzarali daraxtlar, butalarning urug'larini tayyorlash va saqlash. Tuproqni ekishga tayyorlash. Urug'dan unib chiqqan manzarali daraxtlar va butalarni parvarish qilish. Har

xil yashil ko'chatlarga joy ajratish. YOppasiga yoki yalpi ekish, yakka-yakka, qatorlab aralash ekish. Manzarali butalarni yakka qatorlab ko'p qatorlab, yoppasiga ekish. CHirmashib o'suvchi butalar. Tik o'suvchi daraxtlar bilan ko'kalamzorlashtirish.

- Amaliy mashg'ulot:

Manzarali daraxtlar o'tkazish uchun joy tayyorlash. Ekish. To'g'arak qatnashchilarining yordamida, parklarni bezatishdan, ishtirok etish, Ularni parvarish qilish.

16-mavzu. Tokning tuzilishi, o'sishi va meva berishi.

2 soat

Tok o'simligining organlari va qismlari. Har bir organ va qismining ahamiyati. Novda va kurtaklarning har xil turlari gulning tuzilish hususiyatlari. SHingillarning tuzilishi va turlari. Uzum g'ujumining shakli va tuzilishi. Tok o'simligining o'sish va meva berish hususiyatlari. Tok o'simligining yillik uikli. Tokning o'sishi, rivojlanishi va meva berishga iqlim sharoitining taosiri. Tok o'simligining issiqliq, yorug'lik, tuproq, suvga bo'lgan talabi.

- Amaliy mashg'ulot:

Uzum shingilining tuzilishini o'ziga, rasmiga, fotosuratiga qarab o'rganish.

17-mavzu. Ekish materialini etishtirish.

7 soat (2/5)

Tokni o'rug'dan ko'paytirish va foydalanish. Tokni vegetativ ko'paytirish. Vegetativ ko'paytirish, qalamchalash, parhishlash usullari. Tok qalamchalarini tayyorlash. Tok navdasini etilish belgilari. Tayyorlangan qalamchaning uzunligi va yo'g'onligi. Qalamchalarni saqlash sharoiti. Tok qalamchalarini ekish uchun joy tanlash. Tuproqni tayyorlash. Qalamchalar uchini kesish, ularni o'sish va rivojlanishini tezlashtirishi. Qalamchalarni tokzorlarga ko'chirib o'tkazish.

- Amaliy mashg'ulot:

Qalamchalarni tayyorlash va ularni saqlash uchun ko'mib ko'yish. Saqlanayotgan paytda ularni parvarishlab turish. Qalamchalarni uchini kesish. Qalamcha o'tkazish uchun tuproqni tayyorlash. Qalamchalarni ko'chirib o'tkazish va tokzorlarni parvarish qilish. Sug'orish, qo'shimcha oziqlantirish, yumshatish, zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurashish.

18-mavzu. Toklarni ko'mib qo'yish.

10 soat. (2/8)

Tok o'simliklarini issiqlikka, yorug'likka, tuproqqa, suvga bo'lgan talabini xisobga olgan holda joy tanlash. Tokni ko'mish uchun joy tayyorlash. O'g'itlash normasi va muddati. Tokzordagi qatorlarning oziqlanish (ekish sxemasi) maydonini aniqlash. CHuqurlar kavlash. Ko'chatlarni ekishga tayyorlash. Tok ko'chatlarini ekish muddati va usullari. Ekish chuqurligi ekilgandan keyin parvarish qilish.

- Amaliy mashg'ulot:

Tok ko'chatini ekish uchun joy tayyorlash va ularni paykallarga bo'lish. CHuqur kavlash va ekish. Parvarish qilish, o'g'itlash, sug'orish, yumshatish, zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurashish.

19-mavzu. YOsh va hosilga kirgan toklarni parvarish qilish.

8 soat (2/6)

YOsh toklarni parvarish qilish usullari. So'rilarning turlari va so'ri o'rnatish. Tuproqni ishlash, sug'orish, o'g'itlash. Qalamchalar ko'karmay kolgan erlarga qo'shimcha ko'chat ekib to'ldirish, parxish qilish, tok novdalarini uchini qirqish. Homtok qilish, bachki novdalarini yulib tashlash. YOn novdalarni uchini shilish va bu ishlarni bajarish mudatlari. Qari va qarovsiz qolgan tokzorlarni tuzatish. (yoshartirish)

Homtok qilishda ishlatiladigan kerakli asboblari. Tok zarakunanda va kasalliklariga qarshi kurash. Qishga toklarni ustini o'rab qo'yish.

20-mavzu. Bog' - tokzorlarning zararkunandalari va kasalliklari.

5 soat (2/3)

Meva va uzumning zararkunandalari va kasalliklari haqida umumiy ma'lumotlar. Ularga qarshi kurash choralarini. O'zbekistondagi bog'lar, uzumzorlar, rezavor ekinlarning asosiy zararkunandalari. Ichki va tashqi tuzilishining asosiy belgilari hamda hususiyatlari. Kasallik kuzg'atuvchilar-zamburug'lar, bakteriyalar, viruslar.

Kasallik ko'payishiga tashqi muhitning (harorat, namlik) taosiri, o'simliklarda kasallik tug'duruvchi sharoitlar. Noqulay tashqi muhit (past va yuqori harorat) tuproqda ayrim ozuqa elementlarning kamligi va boshqa sabablar oqibatida paydo bo'luvchi kasalliklar. Meva rezavor-meva ekinlari va tok zararkunandalari hamda kasalliklarga qarshi kurashga oid asosiy tadbirlarni bajarish. Zararkunandalarga qarshi kurashning asosiy usullari (agroteknika, mexanika, biologik, ximiyaviy vositalar)

- Amaliy mashg'ulot:

Meva, rezavor meva ekinlari hamda toklarning zararkunandalari, kasallik qo'zg'atuvchilarga chalinganligini aniqlash. Oldini olish va ularni yo'qotish tadbirlarini bajarish. Tutqich belbog'lar bog'lash. Zararkunandalar, kasalliklarga qarshi kurashning mexanizamlashtirilgan usuli bilan tanishish uchun jamoa ho'jaliklariga sayohatga borish.

21- mavzu. Yil bo'yi qilingan ishga yakun yasash.

2 soat.

Nazariy bilim va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha o'quvchilarni ko'nikmalarini aniqlash. Mutaxassis bilan davra suhbatini o'tkazish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

- 1.A.Ribakov, S Ostroukova.O'zbekiston mevaliligi.-T.:1981.
2. M.M.Mirzaev, M.K.Sobirov. Bog'dorchilik.- T.:Mehnat ,1987.
3. Meva etishtirish texnologiyasi. –T.: Toshkent Davlat Agrar Universiteti (Mahruza matnlari) ,2000 .